

3-Mavzu: Transport turlari

Darsning maqsadi:

“Mashinalar odamlarga qanday yordam beradi?” ertagi bilan tanishtirish;

Jamoada ishslash ko‘nikmasini shakllantirish;

Bog‘lanishli nutqini o‘stirish.

Tayanch so‘zlar: transportlar bahsi, odamga foyda keltirish, svetofor.

Didaktik materiallar. mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (*3 daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: Umumiy so‘z bilan nomlang.

Har bir qatorga alohida o‘qiladi.

Olma, anor, nok- (meva)

Albom, chizg‘ich, qalamdon- (O‘quv qurollari)

Ot, echki, qo‘y- (Uy hayvonlari)

II. O‘tilganlarni takrorlash. (*10 daqiqa*)

Shamol va quyosh manbalari haqida to‘plagan ma’lumotlar o‘qitiladi . Hikoyani elektrostansiyalar haqidagi bilimlar bilan boyitilgan holda qayta so‘zlanadi.

III. Darsning asosiy qismi. (*27 daqiqa*)

Amaliy topshiriq: O‘quvchilarga savol beriladi.

Nima odamning uzog‘ini yaqin qiladi?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikda berilgan rasm kuzatiladi. Suhbat uyushtiriladi. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

Rasmda nimalarni ko‘ryapsiz?

Ularni bitta so‘z bilan nima deymiz?

Qanday transport turlarini bilasiz?

Ular insonga qanday yordam beradi?

O‘quvchilarning fikri umumlashtiriladi va to‘ldiriladi.

Matni ustida ishslash.

“Mashinalar odamga qanday yordam beradi?” ertagi navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Mashinalar nima deb bahslashib qolishdi?
2. Bahsda qaysi mashinalar ishtirok etdi? Ular nima deyishdi?
3. Svetorning aytgan gapiga o‘z munosabatingizni bildiring.
4. Siz ertakka yana qaysi transportlarning babsini qo‘shtgan bo‘lardingiz?
5. Ular insonga qanday yordam beradi?

Ertak matnidagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

bartaraf qilmoq – tugatmoq, yo‘q qilmoq.

“Ma’nodoshini top” mashqi.

- “Yordam, kerak, barcha, odam” so‘zlari o‘rniga yana qanday so‘zlardan foydalansa bo‘ladi?

Mashq daftariga so‘zlarning ma’nodoshi yoziladi.

(Yordam-ko‘mak, kerak-zarur, barcha-hamma, odam-inson, kishi)

“Tanlab o‘qish” mashqi.

Rasmda berilgan transportlaning gaplarini topib o‘qitiladi.

Ertakni rollarga bo‘lib o‘qitiladi va sahnalashtiriladi.

Darslikdagi topishmoqlar o‘qitiladi va javoblari aniqlanadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
- Biz bugun darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Siz kelajakda qanday transportlar bo‘lishini istaysiz? “Kelajak transporti” mavzusida rasm ishlang.

4-Mavzu: Yo‘l belgilari so‘zga kirganda...

Dars maqsadi:

- Kavsar Turdiyevaning “Yo‘l harakati qoidalari” she’ridan olib parcha bilan tanishtirish;